

MA'NAVIY YORUG'LIK ZIYOSI: OYBEK IJODI VA "FANORCHI OTA"  
HIKOYASIDAGI TARBIYAVIY JIOLAR

Sadullayeva Farangiz Davron qizi

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19651951>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada atoqli adib va olim, akademik Oybekning hayoti va ijodiy merosi, xususan, uning "Fanorchi ota" hikoyasining badiiy-tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilingan.

Maqolada adib ijodidagi insonparvarlik tamoyillari, yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishda adabiyotning o'rni haqida keng yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oybek, Fanorchi ota, ma'naviyat, tarbiya, insonparvarlik, adabiy meros, nur, axloqiy qadriyatlar.

**Аннотация.** В данной статье анализируется жизнь и творческое наследие выдающегося писателя и учёного, академика Ойбека, в частности, художественное и образовательное значение его рассказа «Фанорчи ота». В статье подробно рассматриваются гуманистические принципы в творчестве писателя и роль литературы в формировании духовности молодого поколения.

**Ключевые слова:** Ойбек, Фанорчи Ота, духовность, образование, гуманизм, литературное наследие, свет, моральные ценности.

**Abstract.** This article analyzes the life and creative legacy of the outstanding writer and scientist, academician Oybek, in particular, the artistic and educational significance of his story "Fanorchi Ota". The article extensively discusses the humanistic principles in the writer's work and the role of literature in shaping the spirituality of the younger generation.

**Keywords:** Oybek, Fanorchi Ota, spirituality, education, humanity, literary heritage, light, moral values.

XX asr o'zbek adabiyotining buyuk namoyondasi, shoir, yozuvchi, adabiyotshunos olim va jamoat arbobi Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek (1905–1968) o'zbek adabiyotining rivojida muhim o'rin tutadi. U 1905-yil 10-yanvarda Toshkentning Gavkush mahallasida bo'zchi oilasida tug'ilgan. Dastlab eski maktabda, keyin "Namuna" maktabida, Navoiy nomidagi ta'lim va tarbiya texnikumida tahsil olgan. Toshkent universitetining ijtimoiy fanlar fakulteti, Leningrad xalq xo'jaligi institutida o'qigan va 1930-yilda oliy ma'lumot olgan. Mehnat faoliyatini o'qituvchilikdan boshlagan adib, keyinchalik oliy o'quv yurtlarida dars bergan, Fanlar akademiyasida faoliyat yuritgan. 1943-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylangan, 1965-yilda O'zbekiston xalq yozuvchisi unvoniga sazovor bo'lgan.

U adabiyot olamiga 1926-yilda "Tuyg'ular" nomli birinchi she'riy to'plami bilan kirib keldi. 1930-yillarda esa "Dilbar – davr qizi" (1931), "O'ch" (1932), "Baxtigul va Sog'indiq" (1933), "Temirchi Jo'ra" (1933) kabi dostonlari bilan o'z davrining she'riy solnomasini yaratdi.

Bu asarlar yangi jamiyat qurish, mehnat, sevgi, qasos va insoniy kechinmalar mavzularini yoritib, o'zbek she'riyatida ijtimoiy-realistik doston janrining rivojlanishiga katta turtki berdi.

Roman janrida "Qutlug' qon" (1940) – 1916-yilgi milliy ozodlik qo'zg'oloni mavzusida, "Navoiy" (1944) – Alisher Navoiy obrazi yaratilgan birinchi yirik tarixiy roman, "Oltin vodiyan shabadalar" (1949), "Quyosh qoraymas" (1958), "Ulug' yo'l" (1967) kabi asarlari bilan o'zbek realistik romanchiligini rivojlantirdi. Yozuvchining avtobiografik "Bolalik" qissasi (1963) uning bolalik yillarini samimiy va hayajonli tarzda hikoya qiladi.

“Pokiston xotiralari” ocherklar to‘plami esa chet el sayohatlari taassurotlarini o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, u bir qancha qissa, hikoya va dramatik asarlar ham yaratgan. Oybek asarlari sodda, ravon, ifodali til va boy tasviriy vositalar bilan ajralib turadi. Uning ijodida vatanparvarlik, insoniy fazilatlar, mehnatsevarlik va milliy g‘urur kuchli o‘rin tutadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo‘lida ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev adabiyot va tarbiya masalasiga doimiy e‘tibor qaratadi.

U “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida ta‘kidlaganidek: “Adabiyot, san‘at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi”. Shuningdek, Prezidentimiz yosh avlod tarbiyasini “hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega” deb baholaydi va “najot — ta‘limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda” degan fikrni qayta-qayta uqtiradi. Darhaqiqat, yoshlar tarbiyasida adabiyotning, xususan, Oybek kabi mumtoz adiblarimiz asarlarining o‘rni beqiyos. Oybek ijodi bugun biz intilayotgan yuksak ma‘naviyatli jamiyat qurishda asosiy manbalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Adibning “Fanorchi ota” hikoyasi ana shunday tarbiyaviy ahamiyatga molik, inson qalbini larzaga soluvchi asarlardan biridir. «Fanorchi ota» hikoyasi Oybekning 1930-yilda yozilgan bolalar adabiyotiga oid asarlaridan biridir. Hikoyada tasvirlangan voqealar oddiy bo‘lsa-da, uning zamiridagi falsafa g‘oyat teran.

Hikoya markazida turgan Fanorchi ota siymosi – sabr-toqat, olijanoblik va ma‘rifat timsolidir. Sho‘x va biroz berahm bolalar fanorni sindirishni o‘yin bilsalar-da, chol ularga nafrat bilan emas, balki mehr va hayotiy haqiqat bilan javob beradi. Bu yerda adib bolalar psixologiyasini juda aniq tasvirlaydi: bolalar uchun fanor shunchaki bir buyum, ammo Fanorchi ota uchun u qorong‘u ko‘chada yo‘lovchilarning mushkulini oson qiluvchi nur manbaidir.

Hikoya markazida turgan Fanorchi ota siymosi – sabr-toqat, olijanoblik va ma‘rifat timsolidir. Uning narvonchasini ko‘tarib kelishi, fanor oynalarini avaylab artishi shunchaki jismoniy mehnat emas, balki atrofdagilarga yaxshilik ulashish istagidir. Hikoyadagi eng og‘riqli va shu bilan birga ibratli jihat — mahalla bolalari va fanor orasidagi “anglashilmas dushmanlik”dir. Sho‘x va biroz berahm bolalar fanorni sindirishni o‘yin, nishonga tosh otishni esa merganlik sanaydilar. Ular fanorning “ko‘zlarini o‘yib” olishdan zavqlanishadi. Bu yerda adib bolalar psixologiyasini juda aniq tasvirlaydi: bolalar uchun fanor shunchaki bir jonsiz buyum, o‘yin ashyosi.

Ammo Fanorchi ota uchun u qorong‘u ko‘chada yo‘lovchilarning mushkulini oson qiluvchi nur manbaidir. Cholning bolalarga baqirmasligi, ularni jazolamasligi — bu yosh avlod bilan muloqotning eng oliy insoniy usulidir. U bolalarning barcha sho‘xliklariga, hatto yangi qo‘yilgan oynalarni o‘sha zahoti sindirishlariga ham “Lom” deb javob qaytarmaydi. Bu vazminlik bolalarni battar g‘azablantiradi, chunki ular cholning urishishini, poylashini xohlashardi.

Hikoyaning kulminatsiyasi — Fanorchi otaning bolalar bilan bo‘lgan samimiy suhbatidir.

Chol o‘zining “Tentak bolalarim” degan xitobi bilan ularga nafrat emas, balki ota ko‘nglidagi achinish bilan yuzlanadi. Uning: “Bizga o‘xshash qari-qartanglar uchun chirog‘ judayam kerak”, — deya aytgan so‘zlari va yomg‘irli tunda ariqqa tushib ketgan, o‘zidan ham qariroq kishining hayotini saqlab qolgani haqidagi hikoyasi bolalar ongida inqilob yasaydi. Ular zulmatning naqadar xavfli ekanini va nur naqadar azizligini bir lahzada anglab yetadilar.

Bu jarayon tarbiyada kuch ishlatish, jazolashdan ko'ra, tushuntirish va shaxsiy namuna ko'rsatishning kuchi qanchalik yuqori ekanini isbotlaydi. Birgina hikoya sabab, bolalarning fanorga bo'lgan munosabati tubdan o'zgaradi: endi ular fanorni sindiruvchi emas, balki uni himoya qiluvchi kuchga aylanadilar.

Oybek haqida zamondosh adiblarning fikrlari ham uning iste'dodini yuksak baholaydi.

Mashhur shoir va yozuvchi G'afur G'ulom Oybekni "Oybekning o'ziga, faqat Oybekka o'xshatish mumkin" deb ta'riflagan. Bu so'zlar adibning o'ziga xos, takrorlanmas uslubini ta'kidlaydi. Hamid Olimjon esa "Prozada shoiru, poeziyada prozaikdir" deb Oybek ijodining serqirraligini e'tirof etgan. "Talent qanchalik katta, qudratli bo'lmasin, har nechuk yuzada bo'lmaydi, konga o'xshash yerning qa'rida bo'ladi. Bu kon – talantni qazib olish uchun avvalo katta aql, undan keyin katta bilim, matonat, kuch-g'ayrat, bularning ustiga dard bo'lishi kerak.

Katta talant egasi Oybekda mana shu xislatlarning hammasi mavjud. Oybek man shu xislatlari bilan xalqimizning ma'naviy xazinasiga katta boylik qo'shdi" deb Abdulla Qahhor Oybek haqida o'z fikrlarini aytib o'tgan. Bu baholar Oybekning nasr va she'riyatda birdek mahoratli ekanligini ko'rsatadi.

Oybekning "Fanorchi ota" hikoyasi shunchaki bir xotira emas, balki insoniylik darsidir.

Adib o'zining shu hikoyasi orqali katta haqiqatni – zulmatni faqat nur bilan, jaholatni esa faqat ma'rifat bilan yengish mumkinligini isbotladi. Bugun biz Oybek asarlarini mutolaa qilar ekanmiz, qalbimizda o'sha Fanorchi otaning chirog'i kabi iliq va nurli tuyg'ular uyg'onadi.

Prezidentimiz rahnamoligida ma'rifatli jamiyat qurish yo'lida Oybek kabi ulug' adiblarimizning asarlari bizga hamisha hamroh va yo'lchi yulduz bo'lib xizmat qiladi. Zero, kitobxon yoshlar – yurtning mustahkam tayanchi, ma'rifatli millat esa dunyo hamjamiyatida hamisha yuksak hurmatga loyiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Oybek. Fanorchi ota // 1930-yil (birinchi nashr). Qayta nashr: Oybek. Mukammal asarlar to'plami. 12-tom. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. Hayoti va ijodi // Tafakkur.net. – <https://tafakkur.net/muso-toshmuhammad-ogli-oybek.haqida>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigi, 2018-yil 7-avgust
4. Oybek zamondoshlari xotirasida. //G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent-1979